

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY


ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmuradovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali - i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Elboboyev Abdug‘ani Shuxrat o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 788 sahifa.
E‘lon qilishga 2025-yil
29-noyabrda ruxsat etildi..



Irisboev Shokhrukhbek

The participation of small businesses in tourism infrastructure: current status and development prospects.....410

Davlatov Sanjar Abdimannonovich

Qashqadaryo viloyatida biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish tamoyillari hamda mezonlari.....417

Teshayev Zavqiddin Jabbor o'g'li

Logistik xizmat ko'rsatish korxonalarining barqarorlik indikatorlari va baholash modeli...426

Turayeva Gulizahro

Texnologiyalarni modernizatsiyalash asosida g'alla yetishtirish samaradorligini oshirish.....436

Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li

Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili....441

Yusupov Zulunjon Ziyoydinovich

O'zbekistonda hayot sug'urtasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.....450

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Qurbonov Axmad Alavxonovich, Zuxriddinov Muxriddin Raxmon o'g'li

Turli muddat va me'yorlarda ekilgan rijik navlarining foydali harorat yig'indisi.....456

Boltabayev Xusnidin Abdiganievich

Nasib navining hosildorligi va tola sifati.....461

Qurbonov Axmad Alavxonovich, Zuxriddinov Muxriddin Raxmon o'g'li

Rijik navlari barg shakllanishining ekish muddatlari va me'yorlariga bog'liqligi.....467

Abdumuxtorov Sardorbek Xamidulla o'g'li

Uzum (Vitis vinifera L.) kolleksiya namunalarining fenologik bosqichlari davomiyligini tahlil qilish.....472

Boltabayev Xusnidin Abdiganievich

Yangi g'o'za tizmalarining zararkunandalarga bardoshligi.....478

Qurbonov Axmad Alavxonovich, Zuxriddinov Muxriddin Raxmon o'g'li

Turli muddat va me'yorlarda ekilgan rijik navlarining biometrik ko'rsatkichlari.....482

Karimova Nurzoda Narziqulovna, Djamalov Zohid Zafarovich

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash samaradorligini oshirishda resurstejamkor texnologiyalarni qo'llashning ilmiy asoslari.....488

Boykobilov Tulkin Chorievich

Effectiveness of senication and desiccation practices against weeds in improving grain quality indicators of winter wheat.....494

Fayziyev Jamoliddin Nasirovich, Anvarova Madina Akrom qizi

O'zbekiston hududida iqlimlashtirilgan olma ko'chatlarining fenologik fazalarini o'tish muddatlari.....504

Mansurov Xusniddin Gabtrashitovich

Janubiy mintaqa sharoitida olxo'ri (Prunus domestica L.) kolleksiyasining fenologik fazalarini o'rganish va iqlimga moslashuvchanligini baholash.....510

Tursunov Quvunchbek Shirkulovich

Xo'raki uzum navlarining zararli organizmlari va ularga qarshi kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi.....517

SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARI TAHLILI

BAYTANOV O'RALBOY MIRAQUL O'G'LI

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: baytanovorol@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashga doir nazariy va amaliy jihatlar yoritilgan. Tadqiqot doirasida sifat menejmenti tizimining asosiy elementlari, standartlashtirish talablari, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullari hamda ularning korxona raqobatbardoshligiga ta'siri o'rganildi. Oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ta'sir etuvchi omillar — xomashyo sifati, texnologik jarayonning barqarorligi, nazorat-o'lchov jarayonlari, ishlab chiqarish gigiyenasi va xavfsizlik talablari chuqur tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, mahsulot sifati, sifatni boshqarish, samaradorlik, oziq-ovqat sanoati korxonalari.

Аннотация. В данной статье раскрыты теоретические и практические аспекты оценки эффективности управления качеством продукции на предприятиях пищевой промышленности. В рамках исследования изучены основные элементы системы менеджмента качества, требования стандартизации, методы определения показателей качества и их влияние на конкурентоспособность предприятия. Проведен углублённый анализ факторов, влияющих на качество пищевой продукции, таких как качество сырья, стабильность технологического процесса, системы контроля и измерений, производственная гигиена и требования безопасности.

Ключевые слова: пищевая продукция, качество продукции, управление качеством, эффективность, предприятия пищевой промышленности.

Abstract. This article presents the theoretical and practical aspects of evaluating the effectiveness of quality management in food industry enterprises. The study examines the key components of the quality management system, standardization requirements, methods for determining quality indicators, as well as their impact on the competitiveness of enterprises. An in-depth analysis was conducted on the factors influencing food product quality, including raw material quality, stability of technological processes, control and measurement systems, production hygiene, and safety requirements.

Keywords: food products, product quality, quality management, efficiency, food industry enterprises.

KIRISH

Oziq-ovqat sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mahsulotlarni barqaror yetkazib berish va sog'lom iste'mol madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. So'nggi

yillarda global bozorning keskin o'zgarishi, raqobatning kuchayishi hamda iste'molchilarning sifat bo'yicha talablarining ortishi mahsulot sifatini boshqarish tizimlarini takomillashtirish zaruratini yanada oshirdi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, sifat - korxona raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo'lib, uning samarali boshqarilishi korxona iqtisodiy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1].

Oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ular xomashyo sifati, texnologik jarayonning barqarorligi, ishlab chiqarish sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish hamda nazorat-o'lchov vositalarining ishonchliligini o'z ichiga oladi. Xalqaro standartlar tizimida ta'kidlanganidek, sifatni boshqarish jarayonida ISO 9001, ISO 22000 va HACCP standartlaridan foydalanish korxonalar uchun xavfsizlik va barqaror sifat kafolatini yaratadi [2]. Shuningdek, statistika asosidagi sifat nazorati, jarayonlarning barqarorligini baholash hamda sifat xarajatlari tahlili samaradorlikni oshirishda muhim metodlar hisoblanadi [3].

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha yagona metodologik yondashuv yetarlicha shakllanmagan. Ko'plab korxonalarda sifat monitoringi faqat yakuniy mahsulotni tekshirish bilan cheklanadi, jarayon bo'yicha yig'ma tahlil va indikatorlar tizimi esa yetarli darajada qo'llanmaydi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, samarali sifat menejmenti tizimi jarayon ko'rsatkichlari, sifat xarajatlari, qayta ishlash ulushi, iste'molchi qoniqish darajasi kabi parametrlar asosida baholanishi lozim [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sifatni boshqarish samaradorligini baholashda indikatorlar tizimini shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Masalan, Deming tomonidan ilgari surilgan "PDCA" sikli sifat boshqaruvi samaradorligini oshirishning universal modeli sifatida keng qo'llanadi va jarayonlarning uzluksiz takomillashtirilishini ta'minlaydi [5]. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda sifat xarajatlari (Cost of Quality — CoQ) modeli samaradorlikni baholashning eng ishonchli usullaridan biri sifatida ko'riladi; bu modelda oldini olish xarajatlari, baholash xarajatlari va nomuvofiqlik xarajatlari o'rtasidagi nisbat tashkilotning sifat darajasi bilan chambarchas bog'liq ekani ko'rsatiladi [6].

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarda (Xodjayeva, Ergasheva va boshqalar) korxonalarda sifat menejmenti tizimining joriy etilishi mahalliy bozor talablarining ortishi, eksport salohiyatining kengayishi va texnologik jarayonlarning modernizatsiyasida muhim omil sifatida baholangan [7]. Ularning tadqiqotlarida sifat ko'rsatkichlarining monitoringi, korxonalarda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi va ishlab chiqarish jarayonlari barqarorligi bilan bog'liq masalalar keng yoritilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida sifatni boshqarish tizimining samaradorligini aniqlash va baholash kompleks yondashuvni talab qiladi. Biroq, ko'plab manbalarda samaradorlik ko'rsatkichlarini integrallashgan

tizim sifatida shakllantirish, ularning miqdoriy baholash mexanizmini takomillashtirish yoki real ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois ushbu tadqiqot aynan sifatni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini ilmiy asosda tahlil qilish va yaxlit metodologik yondashuv ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Jizzax viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifati boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir doiralari tahlil qilingan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida xo'jalik faoliyati yuritayotgan oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish amaliyotini tahlil qilish maqsadida ayrim korxonalarda bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va bu orqali erishilgan natijalarni o'rganib chiqamiz.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini tanlab olingan uchta korxona miqyosida amalga oshiramiz. Tanlab olingan har uchala korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi yildan yilga ortib, eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi ham rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Jumladan, 2015-2025-yillarda "Bonu Shirinliklari" MChJ korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan jami mahsulotlar tarkibida eksport qilinayotgan mahsulotlarning ulushi 10 foizdan 20 foizga, "Samandar Shirinliklari" OK korxonasida esa 12 foizdan 35 foizga, "IRUSKON" MChJ korxonasida esa 15 foizdan 25 foizga yetgan. Ushbu holat ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari yildan yilga takomillashib borayotganligidan dalolat beradi. Chunki eksport qilinayotgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari jahon standartlariga mos bo'lishi talab etiladi.

Iqtisodiy adabiyotda oziq-ovqat korxonalarida sifat boshqaruvi amaliyotining iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha amalga oshirilgan aksariyat tadqiqotlarda mahsulot sifatini oshirish maqsadida amalga oshirilgan xarajatlarning korxona daromadiga ta'siri aniqlangan holda, har bir yo'nalishlar bo'yicha sifat boshqaruvi samaradorligi bilan birgalikda umumlashgan xulosalar chiqarilgan. Ayrim tadqiqotlarda esa ekspert baholash usulidan foydalanilgan bo'lib, bunda olingan natijalar amaldagi holat bilan mos kelmasligi holatlari ko'plab uchraydi. Ekspert baholash usulida sifat boshqaruviga sub'ektiv baho berilganligi aniq natijalarni olish imkonini bermaydi. Shu sababli biz tanlangan korxonalarda mahsulot sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi ayrim omillarni ajratib olib, ularni korxonadagi mahsulot sifati boshqaruvi samaradorligiga ta'sirini aniqlashni lozim deb topdik.

Ilmiy-nazariy jihatdan korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining ortishi bozorda ushbu mahsulotga bo'lgan talab hajmini ortishiga olib kelishini inobatga olgan holda, natijaviy ko'rsatkich sifatida korxona daromadlari

bazasi tanlab olindi. Shu bilan birgalikda, korxonada mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagi ko'rsatkichlar belgilandi:

- modernizatsiya xarajatlari – bunda korxona tomonidan yangi turdagi texnika va texnologiyalarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar inobatga olindi;
- korxona personalni tarkibida oliy-ma'lumotli kadrlar soni;
- korxona yollanma ishchilarining tajribalari bo'yicha guruhlarining mahsulot sifatiga ta'siri:

5 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar soni;

5-10 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar soni;

10 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar soni;

-korxona tomonidan o'z yollanma xodimlari malakasini oshirish uchun sarflangan xarajatlari;

-mahsulot sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan jami xarajatlar.

Dastlab har bir ko'rsatkichlarning yillar kesimidagi o'sish koeffitsiyentlari quyidagi (1) formula asosida baholab olinadi:

$$K_{IO'} = \frac{100 \cdot (X_i - X_{i-1})}{X_i} \quad (1)$$

Bu yerda:

$K_{IO'}$ – tanlangan ko'rsatkichning iqtisodiy o'sish koeffitsiyenti;

X_i – tanlangan ko'rsatkichning o'sish koeffitsiyenti aniqlanayotgan davrdagi ko'rsatkichi;

X_{i-1} – tanlangan ko'rsatkichning o'sish koeffitsiyenti aniqlanayotgan davrdan avvalgi davrdagi o'sish ko'rsatkichi.

Yuqorida keltirib o'tilgan (1) formula asosida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholash maqsadida tanlab olingan korxonalar ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish talab etiladi. Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholash natijalari sakkiz yillik davrni o'z ichiga olganligi sababli, keyingi bosqichda natijaviy ko'rsatkich sifatida tanlab olingan korxona daromadlariga mustaqil o'zgaruvchi, ya'ni natijaviy ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida belgilangan har bir ko'rsatkichning ta'sirini quyida keltirib o'tilgan (2) formula asosida hisob-kitob qilamiz.

$$K_S = \frac{\overline{K_{OIO'}}}{\overline{K_{DO'}}} \quad (2)$$

Bu yerda:


$\overline{K_{OIO'}}$ – korxonada mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'rtacha ko'rsatkichi;

$\overline{K_{DO'}}$ – korxonada mahsulot sifatini boshqarish samaradorligining natijaviy omili sifatida tanlab olingan daromad samaradorligi ko'rsatkichining o'rtacha qiymati.

Yuqorida keltirilgan (2) formula asosida har bir korxona kesimida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga baho beramiz.

Hisob-kitoblarga ko'ra, "Bonu Shirinliklari" MChJ korxonasida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga tanlab olingan omillar o'rtasida xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha xarajatlari boshqa omillarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ijobiy ta'sirga ega ekanligi aniqlandi. Jumladan, korxonada mahsulot sifatini boshqarish

samaradorligiga oliy ma'lumotli kadrlar bilan 5-10 yil yillik mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlarning ta'siri ham yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, korxonada modernizatsiya xarajatlari bilan 10 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar soni mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Ushbu holat korxonada innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha muammolar mavjud ekanligidan dalolat beradi. Bunga sabab korxona personal tarkibida 10 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar soni jami korxona yollanma xodimlari soniga nisbatan 2015-2025-yillarda o'rta hisobda 55-60 foizni tashkil etganligi sababli yangi turdagi texnika va texnologiyalarni amaliyotda qo'llash jarayoni nisbatan qiyin kechganligi bilan izohlanadi. Korxona personal tarkibida yoshi katta xodimlar sonining ko'pligi va ularning yangiliklarni qabul qilishi jarayonidagi muammolar sababli ushbu ikki omil o'zaro bog'liq holda korxonada mahsulot sifati boshqaruvi amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Shu bilan birgalikda, korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalashda ma'naviy eskirgan texnika va texnologiyalarni sotib olinishi holatlari ham mavjud bo'lishi mumkin, deb hisoblaymiz. Bunga sabab, ma'naviy eskirgan texnik va texnologiyalarni sotib olinishi korxona tomonidan kutilgan samaradorlikka erishish imkonini bermasligi hisoblanib, bu boradagi ilmiy nazariyalarda o'z isbotini topgan (1-rasmga qarang).




Manba: muallif tomonidan hisoblangan.

1-rasm. “Bonu Shirinliklari” MChJ oziq-ovqat korxonasida mahsulot sifati boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir doiralari

“Bonu Shirinliklari” MChJ korxonasidan farqli o'laroq, “Samandar Shirinliklari” oilaviy korxonasida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga korxonadagi yollanma xodimlarda zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning yetishmasligi salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, korxonada yangi ishga qabul qilingan xodimlar mahsulot sifatini boshqarish jarayoniga salbiy ta'siri yuqori bo'lgan


omil ekanligi aniqlandi. Ushbu holat mehnat bozorida kadrlar salohiyatini oshirish zaruriyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, korxonada oliy ma'lumotli kadrlar sonining ortishi bilan yollanma xodimlar malakasini oshirish bo'yicha xarajatlar (eng yuqori ijobiy ta'sirga ega) mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, "Samandar Shirinliklari" oilaviy korxonasida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga modernizatsiya va mahsulot sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan (2-rasmga qarang).



Manba: muallif tomonidan hisoblangan.

2-rasm. "Samandar Shirinliklari" oilaviy korxonasida mahsulot sifati boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir doiralari

Mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi bo'yicha tahlil amalga oshirilayotgan uchinchi "IRUSKON" MChJ korxonasida ham avvalgi ikki korxonada bo'lgani singari kadrlar bilan bog'liq muammo mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tahlillarga ko'ra, korxonada yangi ishga qabul qilingan xodimlarning mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga salbiy ta'siri 10 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar soni bilan modernizatsiya xarajatlari omillarining salbiy ta'sir doirasiga nisbatan yuqoriligi bilan karakterlanadi. Shu bilan birgalikda, yuqorida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi bo'yicha omillar ta'siri tahlil qilingan "Bonu Shirinliklari" MChJ va "Samandar Shirinliklari" oilaviy korxonalarida bo'lgani singari "IRUSKON" MChJ korxonasida ham xodimlar malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar mahsulot sifatiga yuqori darajada ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Jumladan, korxona personal tarkibida oliy ma'lumotli kadrlar sonining ortishi ham sifat boshqaruvini takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omil hisoblanadi (3-rasmga qarang).



Manba: muallif tomonidan hisoblangan.

3-rasm. “IRUSKON” MChJ oziq-ovqat korxonasida mahsulot sifati boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir doiralari

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni umumlashtirgan holda, ularning o'rta arifmetigini hisoblash orqali korxonalardagi umumiy sifat boshqaruvi samaradorligi ko'rsatkichiga baho berish mumkin bo'ladi. Bunda quyidagi (3) formuladan foydalaniladi.

$$K_{SBS} = \frac{\sum K_S}{n} \quad (3)$$


Bu yerda:

K_{SBS} —korxonalarda sifat boshqaruvi samaradorligini tavsiflovchi koeffitsiyent;

$\sum K_S$ —korxonada mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar koeffitsiyentlari yig'indisi;

n —korxonada mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga ta'siri tahlil etilayotgan omillar soni.

Yuqorida keltirib o'tilgan (3) formula asosida har bir korxona kesimida umumiy sifat boshqaruvi samaradorligi ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilib chiqamiz. Korxonalar kesimida amalga oshirilgan mahsulot sifatini boshqarish samaradorligining umumiy koeffitsiyentlari tahlil etilgan davr 2015-2025-yillarni qamrab olganligi sababli samaradorlik koeffitsiyenti ushbu davr uchun o'rta hisobdagi natijani ifodalaydi. Amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari 4-rasmida keltirib o'tildi.



Manba: muallif tomonidan hisoblangan.

4-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish jarayonlarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi (2015-2025-yillar uchun umumiy holdagi natija)

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi tahlil etilgan korxonalar o‘rtasida “Bonu Shirinliklari” MChJ korxonasi yuqori iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan bo‘lsa, “IRUSKON” MChJ korxonasida ushbu ko‘rsatkich juda past darajada ekanligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning iqtisodiy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish asosida quyidagi umumiy xulosalar shakllandi:

-korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga yollanma xodimlar, ayniqsa, yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlarning yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malakalarga ega emasligi bilan katta yoshdagi xodimlarning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

-korxonaga oliy ma’lumotli kadrlarni ishga olinishi bilan birgalikda, xodimlar malakasini oshirish xarajatlari mahsulot sifatini boshqarishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

-korxonalarda texnik-texnologik jihatdan qayta qurollanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan modernizatsiya xarajatlari kutilgan iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bermayapti. Bunga sabab, korxonalar tomonidan boshqa mamlakatlardan nisbatan arzonroq narxlardagi ma’naviy eskirgan texnika va texnologiyalarning sotib olinayotganligi hisoblanadi;

-korxonalarda mahsulot sifatini oshirish xarajatlari, ya’ni marketing tadqiqotlari o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar mahsulot sifatini boshqarishning iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Ammo uning ta’sir doirasi xodimlar malakasini oshirish bilan oliy ma’lumotli kadrlarni ishga yollashga nisbatan sezilarli darajada past hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press.
2. ISO 9001:2015 – Quality Management Systems. International Organization for Standardization.
3. Montgomery D.C. Introduction to Statistical Quality Control. – Wiley, 2019.
4. Juran J. Quality Handbook. – McGraw-Hill, 2010.
5. Deming W.E. *Out of the Crisis*. — MIT Press, 2000.
6. Feigenbaum A. *Total Quality Control*. — McGraw-Hill, 1991.
7. Xodjayeva D., Ergasheva M. “Oziq-ovqat sanoatida sifat menejmenti tizimlari samaradorligi”. — TDIU Ilmiy jurnali, 2022.
8. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**